

XITOY TILIDA INSON FIKRI VA HIS-TUYG'USINI IFODALOVCHI GASTRONOMIK METAFORALAR

Fayzullayeva Madina Qahramon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti tayanch doktoranti

madinafayzulaeva970@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada gastronomiyaga tegishli bo'lgan struktur metaforalarni “manba domen” va “maqsadli domen”ga ajratib, inson his-tuyg'usini ifodalovchi gastronomik metaforalarni bir qator misollar bilan birga tahlil qilib chiqiladi. Bizga ma'lum bo'lgan konseptual metaforada ikkita kognitiv domen o'rtasidagi ma'nolarni tushunish uchun bir-biridan foydalanish hamda ular orasidagi mavhum ma'noga ega bo'lganlarini idrok etishdir.

Kalit so'zlar. “manba domen”, “maqsadli domen”, iste'mol qilishga oid harakatlar, taom tayyorlash usullariga oid, oziq-ovqat mahsulotlari, ta'm bilan bog'liq metaforalar.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda konseptual metafora analizi juda ham foydali. Konseptual metafora atamasi ilk bora 1980-yil Jorj Lakoff tomonidan “Metaphors we live by” asarida tilga olinadi¹. Ushbu asarda aytilishicha konseptual metafora bu shunchaki stilistikaning metodi bo'libgina qolmasdan, tafakkur va o'ylashning usulidir. Ushbu asar mualliflari konseptual metaforalarni 3 ga bo'lishgan:

1. Oreintatsion (yo'nalishli) metafora;
2. Ontologik metafora (borliq);
3. Struktur metafora (manba va madsadli domen).

¹ Lakoff G. Metaphors We Live By / George Lakoff, Mark Johnson. – Chicago : Chicago University Press, 1980. – 242 p.

Kontseptual metafora ikkita kognitiv sohani o'z ichiga oladi, ya'ni "manba domen" va "maqsadli domen". Ikki kognitiv domen o'rtasidagi xaritalash "maqsadli domenni" idrok etish uchun "manba domen" dan foydalanishdir².

Inson oziq-ovqat uning mavjudligining muhim tarkibiy qismi ekanligini biladi, buni tilda uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan bir qator metaforalar, shuningdek, ovqatlanish jarayonlariga oid iboralar, maqollar va aforizmlar tasdiqlaydi.

Oziq-ovqat so'zlarining metaforik xaritasi bu jihatda juda to'liq aks ettirilgan, shuningdek, oziq-ovqat obyektlari, ovqatlanish usullari va ovqatlanish harakatlari kabi mavhum kontseptual sohalarga, masalan, fikrlar va hissiyotlar, madaniyat, ta'lim va xarakter kabilar. Bunda, tilda o'ziga xos tushunchalar paydo bo'ladi³.

Biz manba domen sifatida, inson fikri va his-tuyg'ularini ifodalovchi metaforik ma'nolarga ega bo'lgan so'zlarni ushbu guruhlariga bo'lib chiqdik:

1. Taomni iste'mol qilishga oid harakatlar: 吃醋chicu sirka yemoq (hasad qilish sevgi bobida), 吃干醋 chi gancu quruq sirka yemoq (bilvosita rashkni boshdan kechirish, hasad qilish),

“四个国家，实在是两派，你亲了这一边，那一边就要吃醋。

(<https://baike.baidu.com>)

“ To'rtta davlat aslida ikkita fraksiyadir. Bir tarafni yaqin olsangiz, boshqa taraf rashk qiladi”. (<https://baike.baidu.com>)

2. Taom tayyorlash usullariga oid: 炒豆子chao douzi loviya qovurmoq (yuragi sarosimaga tushmoq).

“我很喜欢炒豆子的时候豆子从锅里跳起来的声音,当炒到一定程度,锅里的豆子就安静不下来了。” (<http://epaper.sxrb.com>)

² Lakoff G. Metaphors We Live By / George Lakoff, Mark Johnson. – Chicago : Chicago University Press, 1980. – 242 p.

³ 陶晴. 汉语饮食词语的隐喻转喻认知考察, 上海外国语大学, 2017年. - 70页.

“Menga loviya qovurilganda qozondan sakrab chiqqandagi ovoz juda yoqadi. Ular ma'lum darajada qovurilgan bo'lsa, qozondagi loviya endi jim bo'lolmaydi.”

“炒豆子” chao douzi so'zma-so'z tarjimasi loviya qovurmoq bo'ladi. Loviya qovurganda qozonga solingan loviyalar joyida “pitirlab” ovoz chiqarishni boshlaydi, so'ng loviyalar maromiga yetib pishganda “chiyillagan” ovoz chiqaradi. Huddi shu jarayonni yuragi sarosimaga tushgan insonning his-tuyg'usiga o'shatish mumkin.

3. Taom tayyorlashdagi oziq-ovqat mahsulotlari: 醋劲儿 cujinn sirka kuchi (rashq hissi, tuyg'usi), 醋意 cuyi sirka ma'nosi (hasad sevgida).

“听他称赞 双城 的妇女， 白大嫂子 有些醋意。” (<https://baike.baidu.com>)

“Uning Shuangcheng ayollarini maqtashini eshitib, Bay xonim biroz hasad (rashk) qildi.”

4. Ta'm bilan bog'liq: 酸葡萄 suan putao nordon uzum (sabab izlash, bahona izlash), 发酸 fasuan nordon (achchiqlanish, ga'zablanish, achishmoq, og'riq), 不是味儿 bu shi weir bu ta'm emas (juda ham to'g'ri emas), 对味 duiwei to'g'ri ta'm (tabga ko'ra, didli).

“狐狸饥饿， 看见架上挂着一串串葡萄， 想摘又摘不到， 临走时自言自语地说：“葡萄还是酸的。” (<https://baike.baidu.com>)

“Tulki och edi va tokchada osilgan uzum shodalarini ko'rdi. U ularni olmoqchi edi, lekin ololmadi. Ketayotib, o'ziga-o'zi: “Uzum hali ham nordon”, - dedi.”

Biror-bir kompaniya xodimi yuqori lavozimga ega bo'lishni xohlasa-da, u hech qachon lavozimga ko'tarila olmaydi. O'zini ichki hotirjamligini saqlash uchun, o'ziga shunday tasalli beradi: lavozim qanchalik baland bo'lsa, mas'uliyat shunchalik katta bo'ladi, hozir erkin va yengil ish bo'lgani ma'qul. “酸葡萄” suan

putao “nordon uzum” gastronomik metaforasi biror bir ishni qila olmaganda bahona topish maqsadida ishlatiladi.

把结婚典礼搞成批判会，不对味啊！（<https://baike.baidu.com>）

“To'y marosimini tanqid yig'ilishiga aylantirish to'g'ri emas!”

“对味” dui wei iborasining so'zma-so'z tarjimasini “to'g'ri ta'm”. Ko'pincha inkor ma'nosida ishlatiladi, ya'ni bu ta'm emas, to'g'ri emas, boshqacha bo'lish kerak degan tushunchalarni beradi. Bu ibora metaforik ma'noga ko'chganda insonning didiga, ta'biga mos kelishini ham bildiradi.

“Manba domeni” odatda hammaga ma'lum, moddiy va konkret tushuncha bo'lsa, “maqsadli domen” esa nomoddiy, mavhum va aniqlash qiyin bo'lgan tushunchadir. Metafora jarayoni maqsadli domen konsepsiyasini qurish uchun manba domenining mavhum strukturaviy tasvirini ishlatishdan iborat.

Inson fikri va his-tuyg'usini ifodalovchi:

So'zlar	Manba domen	Maqsad domen
吃醋、吃干醋	Taomlarni iste'mol qilishga oid	Rashkni boshdan kechirish
醋劲儿、醋意	Oziq-ovqat mahsuloti	Rashkli munosabat
酸葡萄	Ta'm bilan bog'liq	Qo'lga kirita olmagan narsadan nafratlanish, bahona topish
发酸	Ta'm bilan bog'liq	Rashkni paydo bo'lishi
不是味儿	Ta'm bilan bog'liq	Yurakda yoqimsiz tuyg'uni his qilish
炒豆子	Taom tayyorlash usuliga oid	Yuragi sarosimaga tushmoq
对味	Ta'm bilan bog'liq	Mazali, ta'mli

“吃醋”, “吃了醋” ichimizda hasad tuyg'usi paydo bo'lganda, tabiiy ravishda yurak nordon bo'ladi va “醋” ta'm hissiy sohada “rashk hissi” bilan xaritalanadi. Bu

bizga odamlarning hasad qilishini va yuraklari sirka iste'mol qilgandek nordon hissiyotni eslatishi mumkin. “不是味儿” dastlab to'g'ri ta'mga ega bo'lmagan taom yoki ichimlikni anglatadi. Bu odamlarni o'zini baxtsiz his qiladigan tuyg'u bilan bog'liq. Majoziy assotsiatsiya orqali bu noqulay va aytib bo'lmaydigan holat ham shaklda, ham ruhda tasvirlangan.

Oziq-ovqat inson hayotining eng asosiy tabiiy tajribalaridan biri bo'lganligi sababli, u muqarrar ravishda odamlarga nozik ta'sir ko'rsatadi. Oziq-ovqatga e'tibor, shuningdek, odamlarga ko'plab falsafalarni tushunishga imkon beradi. Xitoyliklarning ijtimoiy hodisalar haqida o'z qarashlari va mulohazalari bo'lib, ularni oziq-ovqat bilan bog'liq yorqin so'zlar bilan ifodalaydilar. Bu esa shu millat va xalqning madaniyati haqida bizga so'zlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lakoff G. Metaphors We Live By / George Lakoff, Mark Johnson. – Chicago : Chicago University Press, 1980. – 242 p.
2. 金爱情. 汉韩饮食惯用语的隐喻和转喻对比研究. - 浙江大学, 2018年. - 54 页.
3. 陶晴. 汉语饮食词语的隐喻转喻认知考察, 上海外国语大学 , 2017年. - 70页.
4. <https://baike.baidu.com>